

OLIV O'QUV YURLARIDA TABAQALASHTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

*Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti dotsenti
<https://orcid.org/0000-0002-1287-6806>,*

*Barnoyeva Sevara Uchqun qizi,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi
<https://orcid.org/0009-0001-0889-0955>*

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy o'quv yurtlarida tabaqalashtirilgan yondashuv asosida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning ehtiyojlari va o'rganish uslublariga qarab ta'lim berish jarayonlarini tashkil etish tizimi yoritilgan va individual xususiyatlariga moslashtirilgan ta'lim orqali qobiliyat va dunyoqarashlarini rivojlantirish haqida bayon etilgan hamda shaxs va uning kamoloti muammosi, taraqqiy etayotgan va o'z taraqqiyotining yuqori nuqtasiga intilayotgan jamiyat uchun eng muhim masalalari sifatida qaralgan. O'zining individual taraqqiyoti yo'lidan borayotgan O'zbekiston Respublikasida jamiyati fuqaroning ma'naviyati, shaxsiy rivoji va kamoloti, shaxs va jamiyat manfaatlarining hamohangligi har qachongidan ham muhim vosita sifatida qaralmoqda. Yosh avlod tarbiyasi va uning mukammal ta'lim olish masalalari davlat siyosati maqomi darajasida hal etilayotganligi – bu fikrning yorqin namoyonasidir. Shu sababli ham pedagoglar o'z faoliyatlarini yuksak darajada tashkil qilishi uchun nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lishlari, balki muayyan amaliy ko'nikma va malakalarni ham egallashlari talab qilinmoqda. Shuningdek o'zligini anglash – o'z ichki dunyosini kashf qilishi, u haqda umumiy tasavvurga ega bo'lish, o'z-o'ziga hissiy munosabat orqali, axloqiy va irodaviy sifatlarini baholash talab etiladi. Shuningdek maqolada barkamol shaxs kamolotida pedagogik mahorat va qobiliyatlarining o'z rini qay darajada dolzarb ekanligi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tabaqalashtirilgan yondashuv, diagnostika, differensiallashtirilgan darslar, interaktiv uslublar, rag'batlantirish, qayta aloqa.

НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ СПОСОБНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО ПОДХОДА В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

*Самиева Шахноз Хикматовна,
доктор философии (PhD) по педагогическим наукам
Доцент Бухарского инженерно-технологического института*

*Барноева Севара Учкуневна,
исследователь Бухарского государственного университета*

Аннотация: В данной статье освещена система развития способностей студентов, основанная на дифференцированном подходе в высших учебных заведениях, организации образовательных процессов с учетом их потребностей и стилей обучения, а также описано развитие способностей и мировоззрения через обучение, адаптированное к индивидуальным особенностям личности и личности. Его проблема зрелости рассматривается как важнейший вопрос для общества, которое развивается и стремится к высшей точке своего развития. В Республике Узбекистан, идущей по пути своего индивидуального развития, как никогда важными считаются духовность,

личностное развитие и зрелость гражданина в целом, гармония интересов личности и общества. Ярким проявлением этой идеи является тот факт, что вопросы воспитания молодого поколения и его отличного образования решаются на уровне государственной политики. Поэтому для организации своей деятельности на высоком уровне от педагогов требуется не только обладание теоретическими знаниями, но и приобретение определенных практических навыков и квалификации. Необходимо также осознать самого себя – открыть свой внутренний мир, иметь о нем общее представление, оценить свои нравственные и волевые качества через эмоциональное отношение к себе. В статье также описано значение педагогических навыков и умений в развитии всесторонне развитой личности.

Ключевые слова: дифференцированный подход, диагностика, дифференцированные уроки, интерактивные стили, стимулы, обратная связь.

DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' ABILITIES BASED ON A CLASSIFIED APPROACH IN THE COUNTRIES OF HIGHER EDUCATION

*Samieva Shakhnoz Hikmatovna,
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Associate Professor of the Bukhara Institute of Engineering and Technology*

*Barnoeva Sevara Uchkunovna,
researcher at Bukhara State University*

Annotation: This article highlights the system of developing students' abilities based on a differentiated approach in higher educational institutions, organizing educational processes based on their needs and learning styles, and describes the development of abilities and worldviews through education adapted to individual characteristics, and the individual and his The problem of maturity is considered as the most important issue for a society that is developing and striving for the highest point of its development. In the Republic of Uzbekistan, which is on the path of its individual development, the spirituality, personal development and maturity of the citizen as a whole, and the harmony of the interests of the individual and the society are considered more important than ever. The fact that the issues of education of the young generation and its excellent education are being resolved at the level of state policy is a clear manifestation of this idea. Therefore, in order to organize their activities at a high level, pedagogues are required not only to have theoretical knowledge, but also to acquire certain practical skills and qualifications. It is also necessary to realize one's own self - to discover one's inner world, to have a general idea about it, to evaluate one's moral and willful qualities through emotional attitude to oneself. The article also describes the importance of pedagogical skills and abilities in the development of a well-rounded person.

Keywords: differentiated approach, diagnostics, differentiated lessons, interactive styles, stimulation, feedback.

KIRISH. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohatlar jarayonida ta'lim-tarbiya samardorligini oshirish, mustaqil fikr egasi bo'lgan komil insonni tarbiyalash kabi pedagogik vazifalarni amalga oshirish dolzarb muammo ekanligi alohida qayd etilgan bo'lib, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga tatbiq etishning muhim jihati hisoblangan ta'lim jarayonida tabaqalashtirilgan yondashuvni qaror toptirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini

tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonida 1 belgilangan vazifalarni amalga oshirish oliy ta'limda kredit-modul tizimini yanada takomillashtirishni, ta'lim sifatini baholashni xalqaro standartlarga moslashtirishni, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviyaxloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishni talab etadi. Ushbu dolzarb masala yechimi bevosita ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta'lim xizmatlarini rivojlantirish va onlayn texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish hamda ta'limga innovatsion ta'lim texnologiyalarini, jumladan tabaqalashtirilgan yondashuv asosida talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish bilan bevosita bog'liqdir.

Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi, chunonchi, AQSH, Angliya, Germaniya, Fransiya, Isroil, Janubiy Koreya, Singapur kabi mamlakatlarda keng qo'llanilib kelinayotgan "hamkorlikda o'qitish", "loyihalar metodi", "tabaqalashgan o'qitish", "o'qituvchi papkasi", "o'qitishga individual va tabaqali yondashish" kabi texnologiyalardan foydalanishni lozim deb hisoblaymiz. Bularni o'z ish tajribasida qo'llashda ixtiyoriylik prinsipidan kelib chiqish bilan birga birdaniga sakrab o'tish ma'muriy majbur qilishdan saqlanish lozim. Bunda ma'muriy aralashish faqat ularni qo'llash uchun tashkiliy-pedagogik, moddiy baza yaratish, o'quv jarayoni va o'quv xonalarini jihozlash jihatidan bo'lishi mumkin. Ularning qaysi birini tanlashda pedagog o'z imkoniyatidan kelib chiqishi zarur [8].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'qitishda ta'lim texnologiyalari asosini kichik guruhlarda ta'lim berish tashkil qiladi. Uning g'oyasi XX asrning 20 yillarida amerikalik faylasuf Djon Dyui tomonidan ishlab chiqilgan edi. Ammo uning texnologik asoslari, ya'ni tabaqalashtirilgan o'qitish ta'limning amaliy tomoni shaxsni kelajak hayotga, ishlab chiqarishga tayyorlash, ya'ni inson uchun o'qitishning foydali tomoni XX asrning 70-80 yillarida Angliya, Kanada, Avstraliya, Germaniya, Niderlandiya, Yaponiya, Isroil kabi mamlakatlarda turlicha shakllari paydo bo'la boshladi. Uning nazariymafkuraviy asosi XX asrning 80-yillarida AQShning Jon Xopkins universiteti professori R.Slavik, Minnesota universiteti professorlari Rojers Jonson va Devid Jokson, Kaliforniya universiteti olimlari guruhi D.J.Aronson boshchiligida hamda Isroilning Tel-Aviv universiteti olimlari guruhi tomonidan Sholomo Sharon rahbarligida ishlab chiqildi [3].

Jadal rivojlanish davri oliy ta'lim tizimida o'qitishning sifat va samaradorligini oshirishga, pirovard natijada jahon andazalari talablariga mos keladigan yetuk mutaxassis kadrlar yetishtirishga bo'lgan talab va ehtiyojning oshib borishiga olib kelmoqda. Ta'lim sohasidagi o'zgarishlarning hozirgi oliy ta'lim muassasalari o'quv-tarbiya jarayonida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llash, zamonaviy mutaxassis-kadrlarni yetishtirish muammolariga qaratilgan bo'lib, bu masala yuzasidan ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim tizimini takomillashtirish va rivojlantirish maqsadida xorijiy mamlakatlarning tajribalari ta'lim tizimida qo'llanilmoqda. Ushbu ishlarni amalga oshirish zamonaviy ta'lim sohasidagi ilg'or yangiliklarni o'zida mujassamlashtirgan uslub va tizimning yaratilishiga asos bo'lmoqda.

Kasbiy-pedagogik faoliyatning aksiologik asoslari va kasbiy-pedagogik faoliyatga aksiologik yondashuv, aksiologik ta'lim-tarbiya masalalarining qo'yilishi masalalari N.Shodiyev, A.CH.Choriyev, N.S.Kiyamov, X.A.Shayxova, B.G'.Ziyomammedov, Z.D.Davronov, Q.N.Nazarov, M.Tojiyev, M.M.Qahhorova, G.H.Tillayeva va D.Habibullayeva kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan [2]. Shuningdek, muammoga oid ma'lumot va nazariyalarni mashhur faylasuflar – Aristotel va Lutsiy Anniy Senekalar aksiologik qarashlarni inson ruhiyatining axloqiy takomili deb bilib, qadriyat kategoriyasi sifatida talqin etganlar [7].

Ta'lim sifati – aniq maqsadlarga erishish uchun olingan bilimlarni aniq sharoitlarda va ularni qo'llash joylarida talab qilib olishdir. Bunda bilimlarning sifati ta'limni tugatgandan keyin ish faoliyatida ularning puxtaligi, teranligi va talab qilib olinganligi bilan aniqlanadi.

O'qitish jarayonida yoshlarni kasbiy-pedagogik faoliyatga qiziqtirish, ijodiy va izlanuvchanlik qobiliyatlarini oshirish muammosi murakkab sanaladi. Shuning uchun

yoshlarning ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarini oshirishda, ularning kasbga bo‘lgan qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta‘lim ilm berish va tarbiyalashni o‘z ichiga olar ekan, ta‘lim oluvchilarning aql va zakovat hamda ilm borasidagi kuch - quvvatini rivojlantirish, jamiyat, oila va davlat oldidagi o‘z ma‘suliyatini anglaydigan har jihatdan barkamol, erkin shaxsni shakllantirish o‘qituvchi - pedagoglarning birinchi navbatdagi vazifasidir. Shuning uchun ham yoshlarni pedagogik-kasbiy faoliyatga qiziqtirib, kelajakda yetuk mutaxassis bo‘lishi dolzarb vazifa hisoblanadi[6].

Oliy ta‘lim muassasalari ta‘lim-tarbiya jarayonida talabalarning kasbiy faoliyatini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini oshirish va ularning amaliy ko‘nikma, malakalarini shakllantirish uchun ta‘lim jarayoniga yuqori darajali malakaga ega bo‘lgan pedagoglarni jalb qilish zarur. Shunday ekan oliy ta‘lim jarayonida faoliyat ko‘rsatayotgan har bir o‘qituvchi – pedagog ta‘lim mohiyatini yaxshi tushunishi, mashg‘ulotlar turlarini farqlay olishi, mashg‘ulotlar jarayonini to‘g‘ri rejalashtira olishi, tashkil eta olishi, amalga oshira olishi bugungi kun talabidir. Ta‘lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va faol usullardan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tadbqiq qilish, talabalarni ko‘proq mustaqil ishlashga undash, ilg‘or tajribalardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ta‘lim jarayonida kasbiy-pedagogik faoliyat bilan samarali shug‘ullanish uchun ta‘lim metodlarini yaxshi bilish yetarli emas, balki bu metodlarni sharoitga qarab to‘g‘ri tanlash hamda amaliy tadbqiq eta olish muhimdir. Ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan usullar o‘qituvchi va talaba hamkorligida muayyan ta‘lim – tarbiya maqsadlarini, o‘quv vazifalarini hal qilishga qaratilgan faoliyatni ta‘minlovchi omillar tizimi deb qaralishi lozim. Shuning uchun ham ta‘lim usullari talabalar bilish faoliyati bosqichlari bilan bevosita bog‘langan bo‘lib, ularni jadallashtirish, faollashtirishga va ko‘zda tutilgan natijaga erishuvga xizmat qiladi.

Ta‘lim jarayonini takomillashtirishning muhim omili oliy ta‘lim tizimida talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatini yuqori darajada shakllantirilishi bilan uzviy bog‘liq. Shu sababli, zamonaviy ta‘lim texnologiyalari imkoniyatlaridan unumli foydalanish negizida talabalar kasbiy-pedagogik faoliyatini shakllantirish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish muammoning dolzarbligini belgilaydi. Shu munosabat bilan talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyatlarini faollashtirish bugungi kunda talab qilinayotgan kasbiy kompetentlik darajasini ta‘minlaydigan yangicha yondashuvlarni ilmiy asoslash dolzarb vazifa bo‘lib kelmoqda.

Talabalarning kasbiy-pedagogik faoliyati, birinchi navbatda, aniq ta‘lim muassasasi mutaxassisini o‘qitish va tayyorlash orqali shakllantiriladi. Bunday mutaxassislarni tayyorlash kasbga nisbatan yaxlit konseptual yondashuvni (qanday va nimani o‘qitishni aniq tasavvur qilish), mehnatni qadrlay olish (o‘qitish motivatsiyasi), ta‘lim jarayonini optimallashtirish, o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘zini-o‘zi rivojlantirish, o‘z ustida ishlash kabi xususiyatlarni tarbiyalashni taqozo etadi. O‘qituvchi o‘zining pedagogik mahorati, intellekti va madaniyatiga doimo jiddiy e‘tibor berishi va pedagogik mahorati, kasbiy vazifalarini bajarish qanchalik qo‘lidan kelishi darajasini doimo tekshirib borishi, ta‘lim oluvchilar ongi hamda qalbiga kirib borishning maqbul yo‘llarini muntazam izlashi zarur[4].

O‘zbekistonda uzluksiz ta‘lim tizimini takomillashtirish yo‘lida olib borilayotgan islohotning muhim yo‘nalishi sifatida ta‘lim jarayonini texnologiyalashtirishdan e‘tirof etildi. Bu jarayonning samaradorligi o‘qituvchilar tomonidan zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini ta‘lim amaliyotida faol qo‘llanilishi [2], shuningdek, rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta‘limi amaliyotida qo‘llanilayotgan zamonaviy texnologiyalardan xabardor bo‘lishquyidagi shartlar asosida ta‘minlandi. Pedagogik vazifaning hal etilishiga o‘qituvchi va tinglovchi faoliyatlarining mazmuni, vositalarini loyihalash orqali erishadi. Zamonaviy sharoitda ta‘lim jarayonini texnologiyalashtirish uni loyihalashga nisbatan yangicha yondashuv, ya‘ni, ta‘lim jarayonini texnologik strukturasi muvofiq yoritish zaruratini taqozo etadi.

Aynan, ta‘lim-tarbiya jarayonida har bir shaxsning qobiliyatini rivojlantirish, uni

ijodkorlikka undashda muammoli ta'lim texnologiyalarini qo'llash yuqori samara berishini bugun jahon ta'limi ta'kidlamoqda. Demak, bugungi ta'limning dolzarbligini ta'minlash maqsadida:

1. Hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish metodlaridan foydalanish;
2. Hayotiy ko'nikmalarni shakllantirilganligini aniqlash, baholashga yo'naltirilgan metodlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Natijada quyidagi umumiy ko'nikmalar va munosabatlar paydo bo'lishiga erishiladi:

Jamoadam ishlay olish;

Boshqalarni tinglash;

Qaror qabul qila olish;

O'zaro hamkorlik qilish;

Muammolarni hal qila olish;

Axborotlarni tanqidiy tahlil qila olish;

O'zining ta'lim yo'nalishini belgilay olish;

Bilimlarini namoyish eta olish.

Pedagogika nazariyasi va amaliyotida ta'lim-tarbiya jarayonida ko'plab yondashuvlar mavjud. Pedagogik texnologiyalarni xarakteri ana shu yondashuvdan kelib chiqadi. Shunga qaramasdan ko'pgina pedagogik texnologiyalar o'z mazmuni, maqsadi, metodlari va vositalariga ko'ra bir-biriga o'xshash. Pedagogik texnologiyalarni ana shu o'xshash xususiyatlariga qarab ularni bir necha turga ajratish mumkin [10].

Tabaqalashtirilgan yondashuvning muhim qismlaridan biri sanalgan tabaqalashtirilgan ta'limga alohida e'tibor berilgan bo'lib, unda talabalarning qobiliyati va imkoniyatlariga qarab tabaqalashtirib o'qitishga o'tish to'liq amalga oshiriladi. Bunday o'qitish talabalarni individual tarzda, shuningdek, tabaqalashtirilgan guruhlarga ajratib o'qitish, ularning mustaqil ishlarini to'g'ri va maqsadga muvofiq tashkil etish orqali bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunda o'qituvchi har bir talabaning qiziqishi, qobiliyati, layoqatini hisobga olib, mashg'ulotlarni tashkil etish orqali uning samaradorligini oshirishga erishadi.

Aralash ta'lim bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning hech bo'lmaganda qisman elektron-onlayn formatida o'qishiga sharoit yaratadi. Shu bilan birga, vaqt, kurs va ta'lim tezligini nazorat qilish elementlari mavjud bo'lgan rasmiy o'quv dasturi, qisman mashg'ulotlar auditoriyalardan tashqarida amalga oshirilishini ta'minlaydi. Aralash ta'limda integratsiyalashgan ta'lim tajribasini ommalashtirish uchun turli usullar qo'llaniladi. Aralash ta'lim talabalarni to'liq o'quv jarayoniga jalb qilinishini ta'minlaydi. Bunday zamonaviy ta'lim texnologiyasi "auditoriyalardagi ta'lim tizimi", elektron ta'lim va masofadan o'qitish texnologiyalarini birlashtirish konsepsiyasiga asoslanadi va moslashuvchan dasturiy ta'minot bilan to'ldiriladi. Aralash ta'limni O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi asosida amalga oshirish davlat ta'lim standarti talablariga to'liq javob beradi. An'anaviy va elektron ta'lim usullari va texnologiyalarini qo'llash, bir vaqtning o'zida ushbu ta'lim shakllari afzalliklaridan foydalanishga zamin yaratadi. An'anaviy ta'lim elementlari ta'lim oluvchilarni motivatsiyasi uchun xizmat qilib, ta'lim oluvchi va professor-o'qituvchilarning bevosita shaxsiy muloqotlariga asoslanadi.

Ta'lim jarayonini tabaqalashtirish, individuallashtirish va shaxsiylashtirish tamoyillari bugungi kunda ta'lim ehtiyojlariga eng mos hisoblanadi.

Differensiallash ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda, darajasi yoki profili jihatidan farq qiluvchi turli guruh talabalarining o'quv jarayonini tashkil etish prinsipidir. O'quv maqsadlari ushbu guruhdagi barcha talabalar uchun bir xil. O'quv materialini taqdim etish shakllari va uni rivojlantirish uchun taklif qilinadigan faoliyat turlari talabalarining individual imtiyozlariga yoki ularning ehtiyojlariga qarab farqlanadi. Individuallashtirish — bu talabalarining psixologik-

pedagogik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, o'quv materiallari va o'quv ehtiyojlarini rivojlantirishning individual sur'atlarini hisobga olib, professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladigan o'quv jarayonini tashkil etish prinsipidir. Shaxsiylashtirish — bu o'quv jarayonini tashkil etish prinsipi bo'lib, uni amalga oshirishda talaba o'zining shaxsiy ta'lim ehtiyojlari va kognitiv qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'lim mazmuni, usullari va o'rganish sur'atlarini tanlashga ta'sir qilishi mumkin. Ushbu tamoyil zamonaviy ta'limning maqsad va vazifalariga mos keladi. Biroq shaxsiylashtirish prinsipini amalda qo'llash, birinchi navbatda, professor-o'qituvchilar, shuningdek, talabalarning ijtimoiy yetuklik darajasi bilan belgilanadi [11].

Tabaqalashtirilgan ta'lim – bu barcha talabalarning o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va qobiliyatlari hisobga olinadigan ta'lim. U tafakkurning o'ziga xos xususiyatlariga, fikrlash jarayonlarining tezligiga, bilishga qiziqish darajasi va har bir bolaning rivojlanganligi darajasiga asoslangan. Har bir talabaning kuchli tomonlarini va qiyinchiliklarini bilish va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish o'qituvchiga nimani va qay tarzda o'rgatishni, bolani o'qishga qanday qiziqtirishni aniqlashda yordam beradi [6].

Muhokama. Hozirgi kunda jahonda ta'lim tizimi hamda ishlab chiqarishda kreativ fikrlashni kuchaytirish va yangi texnik fikrlashni izlashning nazariy asoslari va uslubiy vositalarining rivojlanishi paydo bo'ldi. Bu shuni ko'rsatadiki, texnik ijodkorlikning ilmiy asoslarini rivojlantirish, kreativ jarayonni kuchaytirish usullarini ishlab chiqish, ijodkorlik asoslarini o'rgatish, ilmiy, loyihalash va konstruktorlik va texnologik tashkilotlarda, korxonalar va universitetlarda ijod uchun qulay sharoitlar yaratish dolzarb ehtiyojga aylandi.

Ilmiy-texnika taraqqiyotini ishchilar va ilmiy yordamchi xodimlar sonini ko'paytirish orqali keng usullar bilan tezlashtirish- bugungi kun maqsadlariga javob bermaydi. Ixtirolar asosida yuqori samarali texnologiyalarni yaratib, yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonini tezlashtirish uchun kreativ fikrlashni faollashtirish vositalarga ega bo'lish zarur. Ushbu vositalarning o'ziga xos xususiyati ilmiy kashfiyot (ixtiro) mantiq'ini va rasmiy mantiqdan o'tish va bilishning yuqori darajasiga ko'tarilish bilan birga kelgan holatlar har doim ham mos kelmasligi bilan bog'liqdir.

Kreativ fikrlashni faollashtirishning evristik texnikasi va usullarini o'rganish muvaffaqiyatni yaqinlashtiradi, shuningdek, shaxsning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Kreativ boshqarish usullarini, ijodkorlik nazariyasini, yangi texnik yechimlarni izlash va usullarini o'zlashtirish ijodning ijtimoiy ahamiyatini, uning ijtimoiy zarurligini anglashga, ularning kreativ salohiyatini yanada to'liq ochib berishga yordam beradi. Shu sababli, jamoaning kollektiv ongini shakllantirish, birgalikdagi tadbirlarni tashkil etish masalalarini ko'rib chiqish qiziq [7].

Inson o'z ijodiy izlanishlari asosida ham dunyoni o'zgartiradi, ham o'zini ijodkor, kashfiyotchi sifatida namoyon etadi. Ya'ni inson o'z oldiga xilma-xil muammolarni qo'yadi va hal qiladi, ularning o'ziga xos yechimlarini topadi. Ba'zan bunday yechimlarga nisbatan betakror yondashuvlar, usullarni qo'llaydi. Ayni shu ma'noda, ijodkor shaxs deganda, yuksak qobiliyat, hayotiy tajribaga tayanadigan teran aql-idrok, haqiqat va yaxshilik birligi, oliy haqiqat, adolat va rostgo'ylik mushtarakligi, aqliy va axloqiy kamolotning oliy darajaga yetgan holati, qadriyatlarni qadrlash, o'zgacha his-tuyg'ularning hayotga singib ketishi, har qanday narsa va hodisaga yangicha nuqtai nazar, aql ko'zi bilan qarash tushuniladi. Iste'dod egalarini shakllantirsa bo'ladi, lekin daholikni emas.

Adabiyotni tahlil qilish asosida (G.S. Altshuller, V.A.Buxvalov, A.A.Gin, M.A.Danilov, A.M. Matyushkin va boshqalar) ijodiy vazifalarga qo'yiladigan quyidagi talablarni ajratish mumkin:

- Ochiqlik (muammoli vaziyat yoki ziddiyatning mazmuni);
- Shartning tanlangan ijod usullariga muvofiqligi;
- Turli xil yechimlarni topish imkoniyati;
- Hozirgi rivojlanish darajasini hisobga olgan holda talabalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.

Ijodiy vazifalar tizimi uchun tarkibni tanlashda ikkita omil hisobga olindi:

1. Talabalarining ijodiy faoliyati asosan jamiyat tomonidan hal qilingan muammolar bo'yicha amalga oshiriladi,

2. Ta'lim mazmunining ijodiy imkoniyatlari.

Zamonaviy tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, yoshlarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishning eng muhim pedagogik shartlari quyidagilardir:

- Faoliyatning mohiyatini o'zgartirish;
- Yoshlarning ta'lim faoliyatida xayrixohlik muhiti;
- Jamoaning shakllanishi.

Ken Robinsonning fikriga ko'ra, "kreativlik – o'z qiymatiga ega original g'oyalarni majmui" sanaladi [1]. Gardner esa o'z tadqiqotlarida mazkur tushunchani quyidagicha izohlaydi: "kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim"[8]. Emebaylning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik "muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish" demakdir [3].

Natijalar. Tabaqalashtirilgan yondashuv asosida talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi — bu talabalarni qobiliyatlari, ehtiyojlari va o'rganish uslublariga qarab turli darajalarda va uslublarda ta'lim berish jarayonidir. Bu yondashuv talabalarni individual xususiyatlariga moslashtirilgan ta'lim orqali ijodiy qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirishni maqsad qiladi. Quyida tabaqalashtirilgan yondashuv asosida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasining asosiy bosqichlari va uslublari keltirilgan:

Talabalarni o'rganish va tahlil qilish.

- diagnostika: talabalar ijodiy qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini aniqlash uchun testlar, so'rovnomalar va suhbatlar o'tkaziladi;

- ma'lumot yig'ish: har bir talabaga oid ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish orqali ularning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash.

Individual o'quv rejalarini tuzish.

- darajalarga ajratish: talabalarni qobiliyatlariga ko'ra guruhlariga ajratish, masalan, boshlang'ich, o'rta va ilg'or darajalar;

- shaxsiy rivojlanish rejasi: Har bir talabaga mos shaxsiy rivojlanish rejasi tuzish, bu rejada ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun aniq maqsadlar va vazifalar belgilanishi.

Ta'lim jarayonini moslashtirish.

- diferensiallashtirilgan darslar: turli darajadagi talabalar uchun moslashtirilgan darslar va topshiriqlar yaratish. Masalan, ijodiy yozuvlar, loyihalar, muammolarni hal qilishga qaratilgan mashqlar;

- interaktiv uslublar: Talabalarni ijodiy fikrlashga undovchi interaktiv va ko'rgazmali uslublardan foydalanish, masalan, rolli o'yinlar, diskussiyalar, guruh loyihalari.

Rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish.

- ijodiy muhit yaratish;

- talabalar uchun qo'llab-quvvatlovchi va ijodiy muhit yaratish. Xatoliklardan o'rganishga rag'batlantirish va yangi g'oyalarni sinab ko'rishga imkon berish;

- rag'batlantirish: Talabalarni muvaffaqiyatlari uchun muntazam rag'batlantirish, bu orqali ularni ijodiy faoliyatga undash.

Baholash va tahlil.

- doimiy baholash: talabalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishini doimiy baholab borish, bu uchun diagnostik testlar, kuzatishlar va portfoliolarni qo'llash;

- tahlil va qayta aloqa: Baholash natijalarini tahlil qilish va talabalar bilan fikr almashish, shuningdek, shaxsiy rivojlanish rejalarini muntazam yangilab borish.

Amaliyotda qo'llanilishi.

Misol uchun, texnologiya darslarida talabalar turli darajadagi loyihalar ustida ishlashlari mumkin. Boshlang'ich darajadagi talabalar oddiy buyumlar yasash bilan shug'ullanishsa, ilg'or darajadagilar murakkab san'at asarlarini yaratishga intilishadi. Bu jarayonda o'qituvchi har bir guruhga mos topshiriqlar beradi va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan qo'llanma va tavsiyalar beradi.

Ta'limda mutaxassisning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyat qozonish imkoniyatini yaratishi uzoq vaqtdan beri ma'lum. Ta'lim jarayonida zarur bilim va ko'nikmalar, kasbiy munosabat, faoliyatning ayrim turlariga va uning rol tuzilishiga tayyorlik to'plami shakllanadi. Ta'lim ma'lum qobiliyatlarning rivojlanish darajasini belgilaydi va hatto mutaxassisning individualligi yoki shaxsiy xususiyatlarini to'g'rilaydi va shakllantiradi.

Ta'lim uning turlari, mazmuni, shakllari, davomiyligi, maqsadlari, usullari bo'yicha har xil bo'lishi mumkin. Biz bu yerda ta'limning umumiy yoki tanazzulga olib keladigan tasnifini qilmaymiz, ammo tan olish kerakki, bu ta'limni rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalarini tushunishda juda foydali masala. Bizning oldimizga boshqa vazifa qo'yilgan - zamonaviy menejerning bugungi eng dolzarb va istiqbolli bo'lgan va zamonaviy tadqiqot potentsialini belgilaydigan ushbu turdagi ta'lim mazmunini ochib berishdir. Ushbu ta'lim turlari tizimli, kreativ, istiqbolli, uzluksiz, fundamental va amaliy bo'lib, faoliyat sifatiga yo'naltirilgan [7].

Xulosa. O'qitish jarayoniga faoliyat nuqtai nazaridan yondashish konsepsiyasiga asoslanib, uni tashkil etish quyidagi mantiqiy ketma-ketligini asoslash mumkin: dastlab o'quv materialini mazmunining tavsifi, uni o'rganishdan ko'zlangan maqsad o'zlashtirish darajalari, shuningdek, pedagogik vazifaning qo'yilish shartlari tahlil etiladi. So'ngra, o'qitishning mos ravishdagi metodlari hamda o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish tizimi ishlab chiqiladi. Shu asosda o'qitish vositalarining ro'yxati tuziladi. Ushbu usul bilan hosil qilingan metod va ta'lim vositalarining yaxlit tizimi tashkiliy shakllar bilan uyg'unlashtiriladi, ya'ni, muayyan texnologiya ishlab chiqiladi. Umumlashgan pedagogik texnologiyalar ma'lum psixo-pedagogik asoslarda qurilgan «sintetik nazariya» sifatida qaraladi. Tadbqiqiy pedagogik texnologiyalar oldindan rejalashtirilgan natijaga erishishga yo'naltirilgan kasbiy tayyorgarlik jarayonini loyihalash muammosini metodik jihatdan hal etishga yo'naltiriladi. Bugungi kunda pedagogik texnologiyalar tadbqiqiy asosini shaxsiy faoliyatli yondoshuv, tanqidiy ijodiy fikrlash, muammolarni hal etish, qaror qabul qilish va jamoada hamkorlikni qaror toptirishga oid pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish ehtiyoji yuzaga kelmoqda. Shunday qilib, avvaldan loyihalashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonining pedagogik texnologiyasi o'zida metodlar tizimi, ta'lim metodik usullari, maqsad, vositalari, o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatish imkoniyatlari hamda yakuniy natijalarga erishish borasidagi majmuani mujassamlashtiradi [9].

Tabaqalashtirilgan yondashuv yordamida talabalar individual qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos ta'lim oladi, bu esa ularning ijodiy qobiliyatlarini samarali rivojlantirishga yordam beradi [5]. Uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy pedagogic texnologiyalar integratsiyasi mukammal tarzda amalga oshirilmas ekan, ta'lim sifati va uning natijaviyligi barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish bobidagi strategik maqsadga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun birinchi navbatda bugungi kunda ta'limning mazmun-mohiyatini modernizatsiya qilish, tabaqalashtirilgan texnologiyalarni muntazam amaliyotlarda tatbiq etish, o'quv jarayonlaridagi faoliyatlarni amaliyotlar bilan tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020-yildagi O'RQ-637-son.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. // URL: <https://lex.uz/docs/4545884>

Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Ta'limda innovatsion texnologiyalar: Pedagogik

texnologiyalarni loyihalashtirish. – T.: «Fan», 2011, -17-b.

Muydinovich, R. I. (2022). Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi tufayli paydo bo'lgan kasblar va ularni o'rganish. pedagogs jurnali, 13(1), 117-122.

Siddiqov, I. M., & Igamberdiyev, U. R. (2021). Pedagogika oliygohlarida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(11), 1146-1163.

Samiyeva Sh. X., Narzullayeva F. F. Sovremenniye podxodi k realizatsii principa dualnogo obucheniya v professionalnom obrazovanii //Sotsialno-gumanitarniye problemi obrazovaniya i professionalnoy samorealizatsii (Sotsialniy injener-2021). – 2021. – S. 69-72.

Самиева Ш. Х. Важные направления инновационной подготовки молодежи к духовно-просветительской деятельности //Качество жизни населения промышленных территорий в стратегии «Общество 5.0». – 2022. – С. 153-156.

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich Ta'lim texnologiyalarini qo'llash muammolari // Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan). 2019. №9 (82). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talim-tehnologiyalarini-llash-muammolari>

Hamrayeva A. Ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan texnoloik yondoshuv // Мактабгача таълим журнали. – 2021.

Zarina Muxitdinovna Ashurova MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI, ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI // Scientific progress. 2021. №7. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/muammoli-talim-tehnologiyalari-ularning-ziga-hos-hususiyaatlari>.

<https://devedu.uz/wp-content/uploads/2024/01/17.-Aralash-ta%CA%BClim-blended-learning-texnologiyasi-asosida-o%CA%BBquv-jarayonini-tashkil-etish.pdf>